

**Maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti “Maktabgacha ta’lim metodikasi” kafedrasi mudiri PhD, dots. S.S.Raximova taqrizi ostida**

**Bozorbayeva Gulruh Alisher qizi**  
Maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti tayanch doktoranti va Toshkent gumanitar fanlar universiteti o‘qituvchisi  
Elektron pochta manzili:  
[gulruhbozorbayeva@gmail.com](mailto:gulruhbozorbayeva@gmail.com)  
Telefon raqam: 88-066-66-03

---

## **KATTA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARING NOSTANDART FIKRLASH RIVOJLANTIRISH BO‘YICHA TANQIDIY FIKRLASH METODLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

**ANNONTATSIYA:** Ushbu maqolada katta maktabgacha yoshdagi bolalarning nostandard fikrlashini rivojlantirishda tanqidiy fikrlash metodlarini takomillashtirish masalasi yoritilgan. Bolalarning nostandard, kreativ va mantiqiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun turli interfaol metodlar, muammoli vaziyatlar va o‘yin texnologiyalaridan foydalanishning ahamiyati tahlil qilinadi. Maqolada innovatsion yondashuvlar va tajriba natijalari asosida tanqidiy fikrlash texnologiyalarining samaradorligi isbotlangan. Tadqiqot natijalari ta’lim jarayonida nostandard fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar bilan boyitilgan.

**KALIT SO‘ZLAR:** katta maktabgacha yosh, tanqidiy fikrlash, nostandard fikrlash, innovatsion metodlar, interfaol ta’lim, kreativlik.

**АННОТАЦИЯ:** В данной статье рассматривается вопрос совершенствования методов критического мышления в развитии нестандартного мышления детей старшего дошкольного возраста. Анализируется значение использования различных интерактивных методов, проблемных ситуаций и игровых технологий для развития нестандартного, креативного и логического мышления у детей. В статье на основе инновационных подходов и результатов эксперимента доказана эффективность технологий критического мышления. Результаты исследования дополнены практическими рекомендациями, направленными на развитие нестандартного мышления в образовательном процессе.

**КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА:** старший дошкольный возраст, критическое мышление, нестандартное мышление, инновационные методы, интерактивное обучение, креативность.

**ANNOTATION:** This article addresses the issue of improving critical thinking methods in developing non-standard thinking in older preschool children. The significance of using various interactive methods, problem-solving situations, and game-based technologies to develop non-standard, creative, and logical thinking skills in children is analyzed. The effectiveness of critical thinking technologies is proven based on innovative approaches and experimental results. The research findings are enriched with practical recommendations aimed at fostering non-standard thinking in the educational process.

**KEYWORDS:** older preschool age, critical thinking, non-standard thinking, innovative methods, interactive learning, creativity.

---

## **KIRISH**

Ta’limga texnologik yondashuvni joriy etish tarbiya va ta’lim samaradorligini oshirish muammosi bilan bog‘liq. Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standarti ta’lim faoliyatini amalga oshirishda pedagogik ijodkorlikni qo‘llab-quvvatlashga, ta’lim texnologiyalarining xilma-xilligi, rivojlantiruvchi metodlar va shakllarni ta’minlashga qaratilgan bo‘lib, ular ta’limiy ahamiyatga ega va bolalar shaxsini shakllantirishga yordam beradi.

Maktabgacha ta’lim va tarbiya bolalarga ta’lim va tarbiya berishga, ularni intellektual, ma’naviy-axloqiy, etik, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga, shuningdek bolalarni umumiy o‘rta ta’limga tayyorlashga qaratilgan uzlusiz ta’lim turi hisoblanadi.[1]

Olimlar tomonidan o‘tkazilgan psixologik-pedagogik tadqiqotlar shuni isbotladiki, “maktabgacha yosh insonning intellektual, shaxsiy, ijtimoiy va hissiy rivojlanishi uchun hal qiluvchi shart-sharoit hisoblanadi. Shuning uchun maktabgacha ta’limda tanqidiy fikrlashdan foydalanish bolalar tafakkurining keyingi rivojlanishi uchun zamonaviy talablar asosida poydevor yaratishi mumkin” [2].

### **MATERIALLAR VA USLUBLAR:**

O.I. Zagashovning fikriga ko‘ra, “tanqidiy fikrlash faol va ijodiy metodlarga yo‘l ochadi. Bola noodatiy shaxs sifatida shakllanishi uchun uni shunchaki ma’lumot bilan to‘ldirish emas, balki tanqidiy fikrlashga, olingan ma’lumotlar asosida mustaqil xulosa chiqarishga, mulohaza yuritishga va to‘g‘ri savollar qo‘yishga o‘rgatish lozim” [3].

D.Halpern o‘z tadqiqotida ta’kidlaydiki, “tanqidiy fikrlash – bu yo‘naltirilgan fikrlash bo‘lib, u vazminlik, mantiqiylik va maqsadga yo‘naltirilganligi bilan ajralib turadi. Bu fikrlash turi maqsadga erishish ehtimolini oshiradigan kognitiv ko‘nikmalar va strategiyalardan foydalanishni o‘z ichiga oladi” [4].

O‘z tadqiqotida G.Devar ta’kidlaydiki, “bolalarga tanqidiy fikrlashni o‘rgatish ularning shaxsiy rivojlanish ko‘rsatkichlarini oshirishi mumkin. Shuni e’tiborga olish lozimki, maktabgacha yoshdagagi bolalar dalillar bilan isbotlangan fikrlarni isbotsiz bayon etilgan fikrlarga qaraganda yaxshiroq tushunadilar” [5]. Biroq, bu jarayon faqat shu bilan cheklanmaydi: “tanqidiy fikrlash jarayonida nafaqat aql, balki hissiyorlar va kechinmalar ham ishtirop etadi. Natijada, tanqidiy fikrlash insonni faol harakat qilish, shu jumladan, jamiyat uchun muhim bo‘lgan faoliyatga yo‘naltirish usullariga o‘rgatadi” [6].

Tanqidiy fikrlash ko‘plab ko‘nikma va malakalarni, jumladan, nostandard fikrlash va nutqiy faoliyat ko‘nikmalarini shakllantirishga imkon beradi. Ushbu ko‘nikmalar tez shakllanadi, chunki mashg‘ulotlar davomida bolalar axborotni izlash va tahlil qilishda faol ishtirop etadilar, o‘z fikrlarini bildirishadi, o‘z nuqtai nazarini ifoda etish va muloqotda tashabbus ko‘rsatish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Tanqidiy fikrlashni shakllantirish texnologiyasining asosi L.S. Vygotskiyning nazariyasiga tayanadi: “har qanday tafakkur ichki bahs natijasidir, xuddi inson ilgari boshqalarga nisbatan qo‘llagan shakl va xulq-atvor usullarini o‘ziga nisbatan takrorlayotgandek” [7].

### **NATIJALAR VA MUHOKAMALAR:**

Katta maktabgacha yoshdagagi bolalarning nostandard fikrlash rivojlantirish bo‘yicha tanqidiy fikrlashni rivojlantirish metodlari axborot bilan ishslash ko‘nikmalarini shakllantiruvchi yaxlit tizim bo‘lib, u turli usullar majmuasini o‘z ichiga oladi. Bu usullar dastlab bolani qiziqtirishga, keyin esa materialni anglash sharoitini yaratishga va olingan bilimlarni umumlashtirishga yordam berishga yo‘naltirilgan.

Keling, metodlarni ko‘rib chiqamiz.

#### **1.Oldindan taxmin qilish**

Tarbiyachi bolalarga mashg‘ulot mavzusini matn sarlavhasi shaklida taqdim etadi. Bolalar esa sarlavha mazmuniga e’tibor qaratib, unda nima haqida so‘z yuritilishi mumkinligini tushunishga

harakat qilishadi.

Masalan, mavzu: *Gulhaniyning “Zarbumasal” asaridagi masallarini o‘qish.*

Tarbiyachi so‘raydi:

- “Sizningcha, hikoyada nimalar haqida so‘z boradi?”
- “Qanday hayvonlar haqida gap ketishi mumkin?”
- “Nomiga mos keladigan surat yoki rasmlarni toping”
- 2. “Ha – Yo‘q”

Tarbiyachi bolalarning mavjud bilimlarini tartibga solib, yagona tasavvur hosil qiladi. U jonli yoki jonsiz biror narsani o‘yaydi, bolalar esa savollar berib, ushbu narsani topishga harakat qilishadi. Pedagog faqat “ha” yoki “yo‘q” deb javob beradi.

Masalan, “*Koinot*” mavzusiga doir savol-javob o‘yini:

- Bu sayyorada katta halqlar bormi? – Yo‘q
- Bu eng katta sayyora? – Ha

Shu asosda bolalar bu Yupiter ekanligini anglab yetishadi.

### 3. “G‘oyalar savati”

Tarbiyachi bolalarga mavzuga oid narsalarni “savatchaga” joylashtirishni taklif qiladi. Bolalar turli tasvirlar, sxemalar yoki obyektlar rasmlarini qo‘yishadi. Hafta davomida ular yangi ma’lumot o‘rganib, savatchaga yangi narsalar qo‘sishlari mumkin. Yakuniy suhbatda savatchaning mazmuni ko‘rib chiqilib, umumiy xulosa chiqariladi.

### 4. “Uchta rasmlardan hikoya tuzamiz”

Tarbiyachi bolalarga mavzuga oid rasmlarni ko‘rsatadi va bolalarga ulardan foydalanib hikoya tuzishadi. Masalan: ushbu 3 ta rasmdan



## XULOSA

Shuni ta'kidlash kerakki, katta maktabgacha yoshdagi bolalarning nostandart fikrlash rivojlantirish bo'yicha tanqidiy fikrlashni rivojlantirish metodlariga nutqiy mashg'ulotlarida foydalanish ijobiy natijalarga erishishga yordam berishi mumkin. Eksperimental ish jarayonida bolaga faoliyatni erkin tanlash, qaror qabul qilish, his-tuyg'ulari va fikrlarini ifodalash uchun sharoit yaratiladi. Rivojlantiruvchi qulay muhit va o'yin usullari tarbiyalanuvchilarining nostandart fikrlashiga ta'sir ko'rsatadi. Ta'lim jarayoniga tanqidiy fikrlashni rivojlantirish metodlarini joriy etish innovatsion faoliyat bo'lib, u samarali va natijaviy bo'ladi hamda maktabgacha katta yoshdagi bolalarning nostandart fikrlash rivojlantiradi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim to'g'risidagi" O'RQ-595-sonli Qonuni.-T.,2019
2. Гуськова О.А. Технология развития критического мышления как средство речевого развития дошкольников // Актуальные вопросы современной науки: теория, методология, практика, инноватика: материалы междунар. науч. конф. Уфа : Изд. НИЦ Вестник науки. 2020. С. 163-170.
3. Загашев И.О., Заир-Бек С.И. Критическое мышление : Технология развития. М. : Альянс-Дельта, 2003. 153 с
4. Халперн Д. Психология критического мышления / Д. Халперн. М. : «Питер», 2000. 512 с.
5. Dewar G. Critical thinking in children : Are we teaching our kids to be dumb? // The adapted mind. New York : Oxford University Press. <https://www.parentingscience.com/critical-thinking-in-children.html> (дата обращения: 13.07.2020).
6. Нагаева Н. Технология развития критического мышления в ДОУ [Электронный ресурс] : URL: [https://www.maam.ru/detskijsad/tehnologii\\_razvitiya-kriticheskogo-myshlenija-v-dou.html](https://www.maam.ru/detskijsad/tehnologii_razvitiya-kriticheskogo-myshlenija-v-dou.html) (дата обращения 23.12. 2019).
7. Выготский Л. С. Педагогическая психология. М. : ACT, 2012. 156 с.